

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FUQAROLIK PROTSESSIDA VAKILLIK
INSTITUTINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI****Shukrona Ibrohimova Bunyod qizi***Toshkent davlat yuridik universitet biznes
huquqi va sud himoyasi fakulteti talabasi***Email:**shukronaibrohimova5@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada fuqarolik protsessida vakil ishtirokining o'ziga xos xususiyatlari, vakillik institutini rivojlantirish masalalari, qonuniylikni ta'minlashda vakil (advokat) ishtiroki, vakillik tushunchasining umumiy tavsifiga oid huquqiy-nazariy ma'lumotlar, fuqarolik protsessida advokat ishtiroki masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: vakolat berish, qonuniy vakillik, ishonchnoma orqali vakillik, vakil, sud himoyasiga bo'lgan huquq, vakillik instituti, malakali yuridik yordam ko'rsatish, vakillik turlari, qonuniy va ixtiyoriy vakillik, sudda advokat ishtiroki.

**ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ИНСТИТУТА ПРЕДСТАВИТЕЛЬСТВА В
ГРАЖДАНСКОМ ПРОЦЕССЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН***Шукрона Иброхимова**Студентка факультета частного**права Ташкентского**государственного юридического**университета***Email:**shukronaibrohimova5@gmail.com

Аннотация: В данной статье раскрыты особенности участия представителя в гражданском процессе, вопросы развития института представительства, роль представителя (адвоката) в обеспечении законности, правовые и теоретические сведения об общей характеристике понятия представительства, а также вопросы участия адвоката в гражданском процессе.

Ключевые слова: выдача полномочий, законное представительство, представительство по доверенности, представитель, право на судебную защиту, институт представительства, оказание квалифицированной юридической помощи, виды представительства, законное и добровольное представительство, участие адвоката в суде.

**ISSUES OF DEVELOPING THE INSTITUTE OF REPRESENTATION
IN THE CIVIL PROCEDURE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN****Shukrona Ibrohimova**

Student of the Faculty of Private Law,
Tashkent State University of Law
Email:shukronaibrohimova5@gmail.com

Abstract: This article discusses the specific features of the participation of representatives in civil proceedings, issues related to the development of the institution of representation, the role of representatives (lawyers) in ensuring legality, legal-theoretical information about the general concept of representation, and matters concerning the participation of lawyers in civil procedure.

Key words: granting authority, legal representation, representation by power of attorney, representative, the right to judicial protection, institution of representation, provision of qualified legal assistance, types of representation, legal and voluntary representation, participation of a lawyer in court.

KIRISH

Sud jarayonida vakillikning dolzarbligi, avvalo, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirish, jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash hamda Konstitutsiyada belgilangan fuqarolarning huquq va erkinliklarini sud tartibida himoya qilish kafolatlarini yanada mustahkamlash zarurati bilan bog'liqdir. Shuningdek, suddagi vakillik institutini har tomonlama o'rganish fuqarolik protsessining asosiy tamoyillari: qonuniylik, taraflarning teng huquqliligi va tortishuv prinsipini amalda ta'minlashga xizmat qiladigan masalalarni yechishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu institutning tarixiy rivojlanishini tahlil qilish vakillik tushunchasi Rim huquqidan kelib chiqqanligi boisidan ham uni yanada kengroq o'rganish mumkinligini ko'rsatadi. Bu institut vaqt o'tishi bilan rivojlanib, avvalgi davrda bo'lmagan ahamiyatga ega bo'ldi. Rim huquqida dastlab vakillik instituti mavjud bo'lmagan va shaxslar o'z huquqiy ishlarini boshqa shaxslarni jalb qilmasdan yoki huquqiy vakolatni biror shaxsga bermay amalga oshirishlari kerak edi. Biroq vakillikni vakolat berilgan shaxslar orqali amalga oshirish ehtiyoji ham keyinchalik paydo bo'ldi. O'sha davrdagi Rim qoidalariga ko'ra, shartnomaviy majburiyatlar faqat shartnoma tuzgan tomonlarga bog'liq edi. Keyinchalik vakillik sezilarli rivojlanishga erishdi va rimlik yuristlarining fikricha, u "mandatum", ya'ni "huquq berish", deb tasavvur qilindi. Vakil yoki "mandatar" o'z vazifalarini "mandat"ning nomidan bajargan, ammo huquqiy oqibatlar har doim unga tegishli bo'lgan. Bundan tashqari, u tegishli huquqiy masalalarda qarzdor yoki kreditor bo'lib qatnasha olgan, faqat o'zining amalga oshirgan ishining natijalari "mandatga" o'tkazilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi fuqarolarning huquq va erkinliklarini nafaqat belgilab qo'yadi, balki ularni amalda ro'yobga chiqarish mexanizmlarini ham

kafolatlaydi. Ushbu kafolatlar orasida eng asosiylaridan biri fuqarolarning sud orqali o'z huquqlarini himoya qilish imkoniyatidir. Konstitutsiyaning 55-moddasida har bir shaxsning o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, shuningdek, davlat organlari va boshqa tashkilotlarning, ularning mansabdor shaxslarining qonunga zid qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi ustidan sudga murojaat qilish huquqi kafolatlangani aniq qayd etilgan¹. Fuqarolarga malakali yuridik yordam ko'rsatish bir necha shakllarda bo'lishi mumkin, ulardan eng muhimlaridan biri esa fuqarolik sud ishlarida vakillik institutidir. Suddagi vakillikning mazmuni va mohiyatini to'liq anglash uchun, avvalo, ushbu tushunchaning o'zi nimaligini aniqlab olish maqsadga muvofiqdir.

Vakillik tushunchasiga Fuqarolik protsessual kodeksi 7-bobida qisqacha tushuntirish berib o'tilgan, unga ko'ra: "Fuqarolar o'z ishlarini sudda shaxsan yoki o'z vakillari orqali yuritishi mumkin. Fuqaroning ishda shaxsan ishtirok etishi uni ish bo'yicha vakilga ega bo'lish huquqidan mahrum etmaydi. Tashkilotlar ishlarni o'z rahbarlari yoki vakillari orqali yuritadi."² Sh.Sh.Shorahmetovning fikricha, sudda vakillik – manfaatdor shaxs nomidan yoki qonunda nazarda tutilgan barcha asoslar bo'yicha protsessual harakatlarni amalga oshirishdir.³ Z.N.Esanova esa vakillik deb fuqarolik ishlarini sud va boshqa organlarda yuritishda qonunda belgilangan tartibda bir shaxsning topshirig'iga ko'ra ikkinchi shaxsning uning nomidan ishda qatnashuviga yoki o'z tashabbusiga ko'ra yoxud qonunda ko'rsatilgan asoslarga muvofiq mustaqil, malakali va sifatli yuridik yordam ko'rsatishiga aytiladi, degan fikrni ilgari suradi.⁴ M.I.Mixaylova vakillikni sud va vakil o'rtasidagi vakillik munosabatlarinim huquqiy tartibga solishni ta'minlovchi huquqiy normalar yig'indisi,⁵ deb belgilaydi. V.S.Lisnevskiy vakillik - bu vakil va sud o'rtasidagi munosabatlar, bunda vakil o'z vakilining manfaatlarini ko'zlab harakat qiladi, deb ta'kidlaydi.⁶ Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, fuqarolik protsessidagi vakilga quyidagicha ta'rif berish mumkin: "**vakil**" — ishonch bildiruvchi shaxs nomidan va uning manfaatlari uchun berilgan vakolat doirasida protsessual harakatlar sodir etadigan hamda huquqlarini amalga oshirishda unga yordam beradigan jismoniy shaxsdir. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 65-moddasiga muvofiq, yuridik shaxslarga tegishli ishlarni har doim ularning rahbarlari yoki vakillari yuritadilar,

¹ <https://lex.uz/docs/-6445145>. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 01.05.2023 yil.

² <https://lex.uz/docs/-3517337>. O'zR Fuqarolik protsessual kodeksi, 01.04.2018 yil.

³ Shorahmetov SH.SH. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. – Toshkent: Adolat, 2007. – 607 b.

⁴ Esanova Z.N. Bolalar tarbiyasi bilan bog'liq nizolarni fuqarolik sudida ko'rishning protsessual xususiyatlari: Yurid. fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtoreferat. Toshkent., TDYUI. 2010, -32 b.

⁵ Михайлова М.И. Представительство: понятие, сущность, условия // Актуальные проблемы экономики и права, 2017. – № 12. – С.335-339.

⁶ Лисневский В.С. Институт представительства в гражданском процессе Российской Федерации: Автореф. дис.канд. юрид. наук. – Томск: Российский государственный профессионально-педагогический университет,

fuqarolar esa, o'z ishlarini sudda shaxsan yoki vakil orqali yuritishlari mumkin. Bunda fuqaroning shaxsan ishtiroki uni mazkur ish bo'yicha vakilga ega bo'lish huquqidan mahrum etmaydi. Vakillik ham o'z o'rnida 2 ga bo'linadi:

1. Qonuniy vakillik (majburiy);
2. Shartnomaviy (ixtiyoriy) vakillik.

Qonuniy vakillik belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz, muomala layoqati cheklangan, bedarak yo'qolgan deb topilgan yoki vafot etgan deb e'lon qilingan shaxslar huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga daxldor fuqarolik ishlarini sudda ko'rishda majburiydir. Qonuniy vakillik kelib chiqishi uchun huquq va manfaatlarini himoya qilayotgan shaxs roziligi talab etilmaydi. Yuqorida keltirilgan holatlardan boshqa holatlarda shartnomaviy vakillik qo'llaniladi. Ayrim protsessual harakatlarni sodir etish uchun qonun maxsus vakolatlar mavjud bo'lishini talab etib, shartnoma bo'yicha vakil, shu jumladan, advokat bu harakatlarni faqat ulardan har biri qonunga muvofiq rasmiylashtirilgan ishonchnomada qayd etilgan holdagina sodir etishga haqlidir.

Ushbu maqolani tayyorlashda umumlashtirish, deduksiya, tizimli yondashuv, qiyosiy-huquqiy tahlil, statistik va amaliyot materiallarini o'rganish kabi metodlardan foydalanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Vakillik institutini rivojlantirish masalalari haqida so'z borar ekan, avvalo, Advokatura institutini takomillashtirish yo'lida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilayotgani haqida ta'kidlash joiz. Advokatlik faoliyatiga noqonuniy tarzda aralashganlik uchun javobgarlik qat'iy belgilandi. Advokatlarning faoliyat yuritish erkinligi qonun hujjatlari orqali mustahkamlangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ham advokatlarning maqomini yanada kuchaytirib, ushbu yo'nalishdagi islohotlar izchil davom ettirilmoqda. Xususan, "O'zbekiston — 2030"⁷ strategiyasida Advokatura institutining salohiyatini tubdan oshirish hamda aholiga malakali huquqiy yordam ko'rsatish tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha islohotlar belgilangan. Ushbu islohotlarni amalga oshirishda bir qator ustuvor vazifalar ko'zda tutilgan:

- Advokatura institutini to'liq o'z-o'zini boshqarish tizimiga o'tkazish va uni davlat organlari hamda boshqa tuzilmalardan haqiqiy mustaqilligini ta'minlash.
- Advokatlar malakasini oshirish uchun zamonaviy va xalqaro standartlarga mos, muqobillik tamoyiliga asoslangan tizimni joriy etish.
- Advokatlar sonini kamida 2000 nafarga oshirish.

⁷ <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

- Fuqarolik, ma'muriy va iqtisodiy ishlar bo'yicha advokatlar, sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasida elektron hujjatlar almashinuvi darajasini kamida 50 foizga yetkazish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" farmoni mazkur sohadagi davlat siyosatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarib, quyidagi uchta asosiy ustuvor yo'nalishlarni belgilab berdi:

- Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash;
- Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish;
- Odil sudlovga erishish darajasini oshirish.

Mazkur ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish orqali sud sohasini demokratlashtirishga va erkinlashtirishga, sud protseslarida fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasidagi roli va ahamiyatini oshirishga va bir qator muammolarni hal etishga zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni⁸ bilan tasdiqlangan **"Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"** Davlat dasturida sud jarayonida taraflar tengligini va tortishuv tamoyillarini to'liq ro'yobga chiqarish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, protsessual qonunchilikda advokatning vakolatlarini – dalillarni yig'ish va taqdim etish imkoniyatlarini kengaytirish, advokatura institutining inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi rolini tubdan kuchaytirish belgilangan. Shuningdek, aholining malakali yuridik yordamga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga davlat hisobidan faqat jinoyat ishlari bo'yicha emas, balki fuqarolik va ma'muriy ishlar bo'yicha ham bepul yuridik yordam ko'rsatish tizimini joriy etish, advokatura faoliyatiga oid normativ hujjatlarni qayta ko'rib chiqish va yagona amaldagi qonunni ishlab chiqish vazifalari ham belgilangan. Ushbu maqsadlar advokatura tizimidagi islohotlarning yangi bosqichini boshlab bermoqda.

Mazkur dasturda advokatlik faoliyatini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida takomillashtirishga ham alohida urg'u berilgan. Jumladan, advokatlik jarayonida ortiqcha qog'ozbozlik va byurokrtiyani qisqartirish, sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa davlat tashkilotlari bilan elektron hujjat almashinuvini joriy etish ko'zda tutilgan. Oliy yoki hududiy malaka komissiyasi qaroriga asosan advokatlik litsenziyasini **"Litsenziya"** axborot tizimi orqali

⁸<https://lex.uz/docs/-5841063>

rasmiylashtirish, advokatlar hamda davlat organlari o'rtasida hujjatlar almashinuvini ta'minlaydigan **“Yuridik yordam”** elektron platformasini yaratish, sud jarayonida advokatning ishtirokini soddalashtiradigan **“Elektron advokat orderi”** tizimini joriy etish ana shular jumlasidandir.

Bu kabi islohotlar, bir tomondan, fuqarolar va tashkilotlarning malakali yuridik yordamdan foydalanish imkoniyatini kengaytirs, ikkinchi tomondan, advokatlarning suddagi ishtirokiga oid tartiblarni soddalashtiradi hamda sud jarayonida buzilgan huquqlarni professional himoya qilish imkoniyatlarini keskin yaxshilaydi.

Hozirgi kunda yurtimizda qonunchilik va sud – huquq tizimini, shuningdek, fuqarolik protseslaridagi vakillik institutini rivojlantirishga qaratilgan chora- tadbirlar faol amalga oshirilmoqda ekan, men ushbu maqolada vakillik institutini rivojlantirishda jahon davlatlari tajribalari va ularni O'zbekistonda tatbiq etish istiqbollari haqida ham to'xtalmoqchiman. Angliyada advokatlik tizimi ikki toifaga bo'linadi: **barristerlar** va **solisitorlar**. Barristerlar yuqori malakali, sudlarda, xususan, **fuqarolik sud majlislarida** bevosita ishtirok etuvchi elita advokatlar hisoblanadi. Solisitorlar esa, asosan, mijozlar bilan ishlaydi, hujjatlarni tayyorlaydi va sudgacha bo'lgan jarayonlarda dalillarni yig'adi. 1990-yildan boshlab, ushbu ikki kasb o'rtasidagi qat'iy farqlar yumshab, ularning ayrim vakolatlari bir-biriga yaqinlasha boshladi. Shuningdek, sud majlislarida nutq so'zlash huquqiga ega bo'lgan yangi turdagi advokatlar ham paydo bo'ldi.

Barristerning asosiy vazifasi **fuqarolik sud majlislarida** yoki boshqa sudlar oldida bevosita nutq so'zlash, ishni himoya qilish yoki ayblov tomonini ifodalashdir. Solisitor esa barristerning suddagi chiqishi uchun zarur bo'lgan dalillar, hujjatlar, tahlillar va ma'lumotlarni tayyorlaydi. Solisitor o'zi sud majlislarida so'zlash vakolatiga ega emas. Qiziqarli tomoni shundaki, prokuror ham to'g'ridan-to'g'ri sudda chiqish qilmaydi, uning nomidan barrister so'zlaydi.

Shuningdek, barrister ayblov tarafida qatnashishdan bosh tortishi mumkin emas. Prokuratura uchun barristerning fikri va tahlili muhim “filtr” bo'lib xizmat qiladi. Buyuk Britaniyada barristerlar yuqori malakasi, mustaqil fikrlashi va sud oldidagi obro'si tufayli nafaqat himoyachi, balki prokuratura ekspertlari sifatida ham e'tirof etiladi. Ularning ishtiroki sud qarorining xolis va adolatli chiqishiga yordam beradi.

Barristerlar barcha sud instansiyalarida, jumladan, **fuqarolik sud majlislarida**, ish yuritish huquqiga ega bo'ladilar. Ular, odatda, ishlarni solisitorlar orqali qabul qiladi (jinoyat ishlari bundan mustasno). Barristerlarning eng yuqori professional maqomi — **Qirollik advokati** unvonidir. G'arb davlatlaridagi mutaxassislar ularni jahon miqyosidagi eng kuchli yuridik ekspertlar qatoriga kiritadi.

Solisitorlar esa, asosan, barristerlar uchun hujjatlarni tayyorlaydigan advokatlar toifasidir. Ular, shuningdek, tashkilot va kompaniyalarda yuridik maslahatchi sifatida faoliyat yuritadilar.

Angliyada advokat bo‘lish uchun yuridik ma‘lumot bo‘lishi shart emas: yuridik bo‘lmagan yo‘nalish bitiruvchilari bir yillik intensiv kursda “core subjects” fanlarini o‘qib, **Common Professional Exam (CPE)** imtihoniga tayyorlanadilar.

Solisitor bo‘lish jarayoni bir necha bosqichdan iborat:

- 3 yillik universitet ta‘limi;
- 12 oylik amaliyot (Legal Practice Course);
- yakuniy imtihon;
- har yili yangilanadigan amaliyot sertifikatini olish.

Amaliyot vaqtida ular shartnoma huquqi, muzokaralar olib borish va boshqa amaliy fanlarni o‘rganib, keyinchalik barristerning **fuqarolik sud jarayonida** chiqish qilishi uchun zarur materiallarni tayyorlaydigan mutaxassis sifatida shakllanadilar.

Shartnoma asosidagi vakillikni ko‘rib chiqarkanmiz, uning nazariy va amaliy jihatlarida bir qator muammolar mavjudligini qayd etish lozim. *Birinchidan*, sud jarayonida tortishuvchanlik va taraflarning teng huquqliligi tamoyillarini real hayotda ta‘minlashda advokatlarning ishtiroki alohida ahamiyatga ega. Huquqshunos olim D. Xabibullayev ta‘kidlaganidek, sudga murojaat qilayotgan fuqarolarning barchasi ham yetarli darajada huquqiy bilimga ega emas. Shu bois, tortishuvchanlik tamoyilining amalda to‘liq ishlashi uchun sud jarayoniga malakali yuridik mutaxassis — advokat jalb etilishi zarur.

Fuqarolik protsessual kodeksining 67-moddasiga ko‘ra, advokatlar shartnomaviy (ixtiyoriy) vakil sifatida sud ishlarida ishtirok etadi. Ammo barcha protsess ishtirokchilari ham advokat xizmatidan foydalanishga qodir emas, chunki u pullik xizmat hisoblanadi.⁹ Mazkur holatga nisbatan **Germaniya Federativ Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining** 4-bobi, 78-paragrafi e‘tiborga loyiq bo‘lib, unda muayyan instansiya sudlarida advokatning majburiy vakil sifatida qatnashuvi belgilangan. Jumladan, landgericht va undan yuqori turuvchi sudlarda taraflar faqat advokat orqali ish yuritishi, suddagi barcha protsessual harakatlar aynan advokat tomonidan amalga oshirilishi nazarda tutiladi. Oilaviy nizolarda ham taraflar sudda faqat ishda ishtirok etish huquqiga ega advokatlar orqali tanishtiriladi.

Fuqarolik protsessida vakil orqali ish yuritish zaruratini yuzaga keltiruvchi bir qancha omillar mavjud. Jumladan:

- ishonch bildiruvchi shaxsning qonun normalarini yetarlicha bilmasligi yoki huquqiy yordamga ehtiyoj sezishi;
- shaxsning professional yuridik faoliyatni mustaqil amalga oshira olmasligi;
- muomala layoqati yo‘qligi yoki cheklanganligi sababli uning manfaatlarini qonuniy vakil yoki u tayinlagan shartnomaviy vakil himoya qilishi zarur bo‘lishi;

⁹ Idiboev Abror Jamolovich. Some issues of improving the grounds and procedure for the participation of a lawyer in civil proceedings. Journal of Law Research. 2022, Special issue 1, pp.51-59

- sud jarayonida shaxsan qatnashish imkoniyatining yoʻqligi (xoriyda boʻlish, xizmat safarida yurish, taʼtilga chiqish va boshqalar);
- sogʻligʻi tufayli davolanish muassasasida vaqtinchalik boʻlishi yoki shunga oʻxshash kundalik hayotda uchraydigan boshqa holatlar.

Shuni ham qayd etib oʻtish joizki, aynan **67-moddaning 7-bandida** ishni koʻrib chiqayotgan sud tomonidan ishda jismoniy shaxslarning vakillari sifatida ishtirok etishiga yoʻl qoʻyilgan shaxslar shartnomaviy vakil boʻla olishlari belgilangan. **“Vakillikka doir fuqarolik protsessual qonunchiligi normalarining sudlar tomonidan qoʻllanilishi toʻgʻrisida”** gi Oliy Sud Plenumi qarorida ham jismoniy shaxslar vakili sifatida sud tomonidan ishda qatnashishga ruxsat berilgan boshqa shaxslar, basharti ular vakil sifatida sudda kasb tariqasida (haq evaziga yoki haq olmay) faoliyat olib borishmasa Shartnomaviy vakil sifatida ishtirok etishlari tushuntirilgan. Biroq “boshqa shaxslar” tushunchasi oʻrnida aynan kimlar shundan huquqdan foydalan olishlari ochiq qilmagan. Bu barcha sudlar oʻrtasida ha muhokamalarga sabab boʻluvchi holat sanaladi. Natijada, sudyalari mana shu vakolatini suisteʼmol qilishi, ichki ishonchi orqali istalgan shaxslarga vakillik uchun ruxsat bera olishi mumkinligi, ishtirok uchun ruxsat berishda shaxsga qoʻyiladigan talablar kabi masalalar paydo boʻladi.

Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik protsessual kodeksining 50-moddasida qayd etilishicha, agar javobgarining yashash manzili nomaʼlum boʻlsa yoki federal qonunda koʻzda tutilgan boshqa holatlar mavjud boʻlsa, sud uning nomidan advokat tayinlaydi¹⁰. Sud tomonidan tayinlangan bunday advokat ish boʻyicha qabul qilingan sud qarorlaridan shikoyat qilish huquqiga ega ekanligi ham mazkur normada belgilangan.

Shunga oʻxshash tartibni **Belorusiya Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining** 77-moddasida ham uchratish mumkin. Ushbu modda sud tomonidan vakil tayinlanishi lozim boʻlgan holatlarni belgilaydi. Xususan:

- 1) muomalaga layoqatsiz shaxs yoki uchinchi shaxsning vakili boʻlmagan taqdirda;
- 2) javobgarining yashash manzili nomaʼlum boʻlib, uning vakili mavjud boʻlmaganda;
- 3) vakilning oʻziga nisbatan Belorusiya Respublikasining nikoh va oila kodeksida nazarda tutilgan asoslar boʻyicha ish yuritish huquqiga ega boʻlmasligi;
- 4) qonun bilan belgilangan boshqa holatlar.

Moddaga koʻra, birinchi va uchinchi bandlarda nazarda tutilgan holatlarda vakil vasiylik va homiylik organlari tomonidan tayinlanadi. Ikkinchi bandda belgilangan vaziyatda esa javobgarining qarindoshlari yoki boshqa fuqarolar ushbu organning roziligi bilan vakil sifatida tayinlanishi mumkin.

¹⁰ Гражданское процессуальное право (Россия)

Xitoy Xalq Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 58-moddasida taraflar yoki ularning qonuniy vakillari ish yuritish uchun bir yoki ikki nafar vakilni jalb qilishi mumkinligi belgilangan. Vakil sifatida advokatlar, yaqin qarindoshlar, taraflarning yashash hududidagi jamoat tashkilotlari tomonidan tavsiya etilgan shaxslar, shuningdek xalq sudi tomonidan tavsiya etilgan boshqa fuqarolar sudda ishtirok etishi mumkin. Ushbu kodeksning 60-moddasiga muvofiq, agar vakilning vakolatlari o'zgartirilsa yoki bekor qilinsa, buni amalga oshirgan taraf xalq sudini yozma ravishda xabardor qilishi, sud esa bu haqda boshqa tarafni ogohlantirishi shart.

Ukraina Fuqarolik protsessual kodeksining 58-moddasida esa taraflar, uchinchi shaxslar yoki qonun asosida boshqa shaxslarning manfaatlarini ko'zlab ish yuritayotgan shaxslar sud jarayonida shaxsan (o'z-o'zini vakillik qilish yo'li bilan) yoki vakil orqali ishtirok etishi mumkinligi belgilangan. Mazkur kodeksning **60-moddasi** to'rtinchi qismiga ko'ra, *manfaatlar to'qnashuvi* mavjud bo'lmagan taqdirda vakil bir vaqtning o'zida bir nechta da'vogar, javobgar yoki uchinchi shaxslarning manfaatlarini bir tomondan ifodalashi mumkin.

Xuddi shuningdek, AQSh fuqarolik protsessual kodeksida ham vakillik bo'yicha alohida normalar belgilab o'tilgan. Bundan tashqari **Amerika Advokatlar Assotsiatsiyasi advokatlarning kasbiy-axloqiy qoidalari to'plami ham shartnoma orqali advokatlarning sud protsessida ishtirokini belgilab beruvchi asosiy normalardan biri hisoblanadi. Uning 1.7, 1.9, 1.10 normalari aynan** advokatning mijoz oldidagi majburiyatlari, manfaatlar to'qnashuvi (Conflict of interest), advokatlik firmasi faoliyati bilan bog'liq talablarni mujassamlashtirgan bo'lib, bir ish yuzasidan bir advokatlik firmasining advokatlari taraflar sifatida ishtirok etishi manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishiga sabab bo'lishi gumoni ostida taqiqlab qo'yilgan¹¹. Masalan, Advokatlik firmasining advokati nikohdan ajrashayotganida xotin tomonidan shu advokatlik firmasining boshqa bir advokati vakil sifatida ishtirok eta olmaydi.

Xorijiy davlatlar tajribasini tahlil qilib aytishimiz mumkinki, fuqarolik protsessual qonunchiligimizni takomillashtirish, undagi vakillik institutiga oid vakolatlarni kengaytirish, vakillarni fuqarolik sud ishlariga jalb qilish borasida o'zgartirish va qo'shimchalar kiritiladigan vaqt keldi. Qonunchiligimizni takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflar ilgari surishimiz mumkin.

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 65-moddasiga uchinchi qism sifatida "Yashash joyi (joylashgan manzili) noma'lum bo'lganligi sabali javobgarining sud protsessida qatnashishining imkoni bo'lmagan yoki uning vakili bo'lmagan taqdirda uning manfaatlarini sudda himoya qilish maqsadida sudya tomonidan advokat tayinlanadi. Sud tomonidan javobgarining vakili

¹¹ http://www.paclii.org/fm/rules/prof_conduct_rules/mropc343.pdf

etib tayinlangan advokat ushbu ish bo'yicha sudning protsessual hujjatlari ustidan shikoyat qilish huquqiga ega" talqinida normani kiritish kerak.

Ikkinchidan, hozirgi kunda advokat bo'lish uchun qo'yilayotgan talablarning yengillashtirilayotgani bir tomondan quvonarli bo'lsa-da, boshqa tomondan ma'lum xavotirlarni ham yuzaga keltirmoqda. Chunki ikki yillik staj talabi bekor qilingani sababli, bakalavriatni endigina tamomlagan yoshlar ham tezda advokatlik faoliyatiga kirishishi mumkin. Bu esa yetarli amaliy ko'nikmaga ega bo'lmagan shaxslarning sud jarayonlariga aralashishi, hatto ayrim hollarda advokatlik etikasiga zid xatti-harakatlarni sodir etishiga zamin yaratmoqda. Albatta, advokatlar sonining ko'paygani yaxshi ko'rsatkich, ammo son ortishi bilan sifat masalasini chetga surib qo'yish islohotlarning to'g'ri yo'nalishda emasligini anglatadi.

Rivojlangan davlatlar, xususan, Germaniya tajribasidan kelib chiqadigan bo'lsak, u yerda advokat bo'lish uchun qo'yiladigan talablarning yarmigina ham bizning amaliyotda mavjud emas. Ularning yuqori talablar qo'yishi nafaqat malakali va sifatli advokatlar korpusini shakllantiradi, balki ushbu kasbga bo'lgan hurmat va obro'ning ortishiga ham xizmat qiladi. Demak, advokatlar sonini oshirishga intilishdan ko'ra, ularning professional bilim va malakasini yuksaltirishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Shu bois, advokat bo'lishni istovchi nomzodlarga qo'yiladigan mezonlar yanada qat'iylashtirilishi lozim, deb hisoblaymiz.

Uchinchidan, yuqoridagi fikrning mantiqiy davomi sifatida, hozirgi paytda O'zbekistonda advokatura sohasiga ixtisoslashgan alohida ta'lim muassasasi mavjud emas. Faqat ayrim oliy ta'lim dargohlarining magistratura yo'nalishlari mazkur sohaga yaqin, xolos. Shunday ekan, biz yuqori saviyadagi advokatlarni qanday tayyorlayapmiz, degan savol o'rinli bo'lib qoladi. Mazkur vaziyatdan chiqish yo'li sifatida O'zbekistonda yagona bo'lgan ixtisoslashtirilgan Advokatura litsey-kolleji va uning mantiqiy davomi bo'ladigan Advokatura oliy ta'lim muassasasini tashkil etish lozim. Bunday ta'lim maskani yoshlar uchun chuqur nazariy va amaliy bilim olish, advokatlik kasbini professional darajada o'zlashtirish imkonini yaratadi.

To'rtinchidan, FPK 67-moddaning 7-bandi asosida yuqorida tahlil qilingan masalalarning oldini olish, aniqlik va barqarorlikni ta'minlash, sudyalalar uchun qulaylik yaratish, fuqarolar uchun esa belgilab qo'yilgan yo'nalish shakllantirish, eng asosiysi, vakillik instituti rivojlanishi uchun jismoniy shaxslar vakili sifatida sud tomonidan ishda qatnashishga ruxsat berilgan boshqa shaxslar ro'yxatini shakllantirish lozim. Unga ko'ra, faqatgina ro'yxatda qat'iyon belgilab o'tilgan shaxslar sudyaing roziligi bilan shartnomaviy vakil bo'la oladilar. AQSh misolidan o'rganadigan bo'lsak, qonun va normalarni o'rganuvchi talabalar aynan shunday norma asosida sudlarda vakil bo'ladilar. Bundan kelib chiqib, yurisprudensiya yo'nalishida tahsil oluvchi talabalarni ham ushbu ro'yxatga kiritish chet el tajribasini yurtimizda qo'llash orqali sud protsesslarini rivojlantirishda samarador natijalar olishga asos bo'ladi.

Beshinchidan, fuqarolik protsessual qonunchiligida belgilanganidek, **advokatning** vakil sifatida ishtiroki manfaatlar to'qnashuvini yuzaga keltirsa, boshqa taraf yoki ilgari ishtirok etgan bo'lsa, taqiqlanadi. Ammo **advokatlik firmasi** advokatlari orasidagi manfaatlar to'qnashuvi masalasi qonunchiligimizda aynan belgilanmagan, advokatlik firmalari uchun cheklov yo'q. Xususan, da'vogar taraf va javobgarining advokati bir advokatlik firmasidan ishtirok etadigan sud majlisida o'zaro ishonchsizlik masalasi ham ilgari suriladi. Shu bois, FPK 70-moddasi 4-bandida qayd etilgan manfaatlar vakolat beruvchining manfaatlariga zid bo'lgan shaxslarga huquqiy yordam ko'rsatayotgan yoki ilgari yordam ko'rsatgan shaxslar vakil bo'la olmaydigan holatlarga advokatlik firmalarini ham kiritish maqsadga muvofiq.

XULOSA

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bugungi kunda Yangi O'zbekiston puxta o'ylangan, aniq maqsadli va strategik islohotlar natijasida jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini egallayotgan davlatlar qatoridan joy olmoqda. Ishonch bilan aytish mumkinki, Yangi O'zbekiston kelajakda ham har tomonlama kuchli, taraqqiy etgan va farovon mamlakat sifatida rivojlanishda davom etadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: *"Bugungi kunda biz erishgan eng katta natija – bu demokratik islohotlarimizdir."*

Shuni qo'shimcha qilish joizki, bugungi zamonni raqamli texnologiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu sababli nafaqat sud-huquq tizimi, balki barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar bilan bir qatorda raqamlashtirish jarayonlari ham keng imkoniyatlar yaratmoqda. Raqamli tizimlar orqali sud-huquq sohasini yanada takomillashtirish, jarayonlarni shaffoflashtirish va korrupsion holatlarning oldini olish mumkin.

Mening fikrimcha, sud tizimi jazolovchi mexanizm emas, balki inson huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi institutga aylanishi zarur. Fuqarolik sud protseslarini yanada ochiq, adolatli va demokratik ruhda olib borish uchun sudya maslahatchilari safiga turli tashkilot vakillari bilan bir qatorda, huquqiy bilimga ega bo'lgan ko'ngilli oddiy fuqarolarni ham jalb etish maqsadga muvofiq. Bu esa sudya va taraflar o'rtasida manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etib, qabul qilinadigan qarorlarning adolatli va asosli bo'lishiga, shu bilan bir o'rinda, vakillik institutining rivojlanib borishiga ham xizmat qiladi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan har qanday islohotlarning, xususan, himoyalash huquqini ta'minlash institutini yanada isloh etish yuzasidan olib borilayotgan islohotlarning markaziy bo'g'inini inson, uning huquq va manfaatlarini tashkil etayotganini ta'kidlash o'rinlidir. Zero, islohot–islohot uchun emas, islohot, avvalo, inson, uning manfaatlarini uchun xizmat qilmog'i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 01.05.2023 yil. <https://lex.uz/docs/-6445145>.

2. O'zR Fuqarolik protsessual kodeksi, 01.04.2018 yil.<https://lex.uz/docs/-3517337>.
3. Shoraxmetov SH.SH. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. – Toshkent: Adolat, 2007. – 607 b.
4. Esanova Z.N. Bolalar tarbiyasi bilan bog'liq nizolarni fuqarolik sudida ko'rishning protsessual xususiyatlari: Yurid. fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtoreferat. Toshkent., TDYUI. 2010, -32 b.
5. Михайлова М.И. Представительство: понятие, сущность, условия // Актуальные проблемы экономики и права, 2017. – № 12. – С.335-339.
6. Лисневский В.С. Институт представительства в гражданском процессе Российской Федерации: Автореф. дис.канд. юрид. наук. – Томск: Российский государственный профессионально-педагогический университет, 2017. – 27 с
7. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
8. <https://lex.uz/docs/-5841063>
9. Idiboev Abror Jamolovich. SOME ISSUES OF IMPROVING THE GROUNDS AND PROCEDURE FOR THE PARTICIPATION OF A LAWYER IN CIVIL PROCEEDINGS. Journal of Law Research. 2022, Special issue 1, pp.51-59
10. Гражданское процессуальное право (Россия)
11. http://www.paclii.org/fm/rules/prof_conduct_rules/mropc343.pdf